

**Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida tashabbusi bilan Oltinsoy
tumanidagi maktablarning 3-4-sinf o'quvchilari o'rtasida tumandagi
56-umumta'lim maktabida o'tkazilgan "Kim ko'p she'r biladi?" tanlovining**


Bayonnomasi

2025.04.03

2025-yil 3-aprel kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida tashabbusi bilan Oltinsoy tumanidagi 56-umumta'lim maktabida Oltinsoy tumanidagi barcha umumta'lim maktablarining 3-4-sinf o'quvchilari uchun o'qish savodxonligi fani bo'yicha **"Kim ko'p she'r biladi?"** tanlovi tashkil etildi. Tanlovni kafedra katta o'qituvchisi Q.Xushboqov, o'qituvchi H.Allayevalar tashkil etib, baholab bordi. Ushbu tanlovda tumanning 40- va 56-sonli umumta'lim maktablarining iqtidorli o'quvchilari ishtirok etdi. Dastlab mazkur olimpiadani kafedra mudiri R.V Salomova kirish so'zi bilan ochib berdi. Nutqi davomida oliy ta'lim muassasasi va Oltinsoy tumanidagi maktablar hamkorligiga alohida to'xtalib o'tdi.



Shundan so'ng kafedra o'qituvchilari qatnashchilarga tanlov nizomini tanishtirib o'tdi. Shu o'rinda baholash nizomiga alohida to'xtaldi. So'ngra she'rlar soni va intonatsiya asosiy mezon ekanligi aytildi.



O'quvchilar tomonidan aytilgan turli mavzudagi she'rlar kafedra katta o'qituvchisi Q.Xushboqov, o'qituvchi H.Allayeva tomonidan xolisona baholandi.



Yakuniy natijalarga ko‘ra, 3-sinflar o‘rtasida

- 1-o‘rinni 40-maktab Hayitaliyeva Orasta
- 2-o‘rin 56- maktab Zoirov Diyorbek
- 3-o‘rin 56-maktab Abdumannova Saboxat

4-sinflar o‘rtasida:

- 1-o‘rinni 40-maktab Hamzayeva Lobar
- 2-o‘rinni 56-maktab Mamatmurodov Nursulton
- 3-o‘rinni 56-maktab Alimardonov Qilichbeklar egalladi.

Tanlov so‘ngida kafedra mudiri p.f.f.d (PhD) R.V.Salomova va fan o‘qituvchilari tomonidan tanlov g‘oliblari I, II va III darajali diplom va esdalik sovg‘alar bilan, qatnashchilari esa “Faxriy yorliq ” va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.



Kafedra mudiri:

R.V.Salomova

1-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**DENOV TADBIRKORLIK VA
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

190507, Surxondaryo viloyati, Denov tumani,
Bog' ko'chasi, 112-uy
Tel:95-650-77-57 Faks:76-41-39-027
E-mail: info@dtpi.uz, dtpi@exat.uz.



**REPUBLIC OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION,
SCIENCE AND INNOVATIONS**

**DENAU INSTITUTE OF
ENTREPRENEURSHIP AND PEDAGOGY**

190507, Surkhondaryo region, Denau district,
Bog street, 112
Tel:95-650-77-57 fax: 76-41-39-027
E-mail: info@dtpi.uz, dtpi@exat.uz.

1 aprel 2025 yil.

01-659-son

**Oltinsoy tuman maktabgacha
va maktab ta'limi bo'limiga**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Sizga shuni ma'lum qiladiki institut rektorining **2024-yil 10-oktabrdagi 175-A-sonli** buyrug'iga asosan Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasidan tomonidan (Oltinsoy tumanidagi barcha umumta'lim maktablari) Oltinsoy tumani **56-umumta'lim maktabida** matematika fanidan matematika olimpiada, ona tili fanidan kim ko'p she'r biladi, kimni xati chiroyli, tasviriy san'at fanidan erkin mavzuda rasm chizish tanlovlari **3-aprel kuni soat 10:00 da o'tkazishini ma'lum qilamiz**

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Sizning tasarrufingizdagi maktablarning 3-4-sinf iqtidorli o'quvchilarini tanlovda ishtirokini ta'minlab berishingizni so'raymiz.

Rektor



O.Ruziyev

*Ijrochi: R.Salomova
Tel: 90 248 03 31*

2-ilova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasidan Oltinsoy maktablarida o'tkaziladigan tanlov grafigi					
№	Fan nomi	Sinf	Tanlov nomi	Tanlovga ma'suli	O'tkaziladigan kuni
1	Matematika	3-4 sinf	Matematika olimpidi	Yusupov Anvar Alijonovich +998995668640 Ibragimova Nozima Ulug'bekovna +998975545514	03.04.2025
	Ona tili	3-4 sinf	Kim ko'p sh'cr biladi	Xushboqov Qobilbek Shokirovich +998942650965 Allayeva Hafiza Rustam qizi +998907479408	03.04.2025
2	Ona tili	3-4 sinf	Kimni xati chiroyli	Ergasheva Oyxamol Jahongirovna +998905221054	03.04.2025
3	Tasviriy san'at	3-4 sinf	Erkin mavzida rasm chizish tanlovi	Baxromova Shohsanam Ibrodullayevna +998936104212	03.04.2025

Kafedra mudiri:  R.V. Salomova

3-ilova

Institut rektorining 2024-yil 10-oktabrdagi 175-A-sonli buyrug'iga asosan Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasidan (Oltinsoy tumanidagi barcha umumta'lim maktablari) Oltinsoy tumani 56-umumta'lim maktabida 3-aprel kuni o'tkazilishi belgilangan ona tili fanidan "Kim ko'p she'r biladi?" tanlovining

Nizomi

Tanlovni o'tkazishdan maqsad: Tanlovning asosiy maqsadi 3-4-sinf o'quvchilari orasida she'riyatni sevishni targ'ib qilish, ularning eshitish va so'zlash malakalarini rivojlantirish, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undashdir. O'quvchilar o'z she'rlarini o'qib, she'riyatning go'zalligini his qiladilar, o'zaro do'stlikni mustahkamlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Tayyorgarlik uchun vaqt berish: O'quvchilarga she'rni tayyorlash uchun yetarli vaqt ajratish. Bu vaqt davomida o'qituvchilar ularni yo'naltirib, she'rni yodlashga yordam bera olishlari kerak.

Ishtirokchilar:

O'quvchilarning ifodali va to'g'ri talaffuz bilan o'qishlari:

Ifodali o'qish: O'quvchilar she'rni nafaqat yoddan, balki uning mazmunini tushunib, ifodali tarzda o'qishlari kerak. Bu she'rning ta'sirini oshiradi.

Talaffuz: O'quvchilarning talaffuzi to'g'ri bo'lishi zarur, chunki she'rning ma'nosi va go'zalligi to'g'ri talaffuz bilan yanada ta'sirliroq bo'ladi.

Taqdirlash:

Mukofotlar: Tanlovda qatnashgan barcha ishtirokchilar uchun esdalik sovg'alarini taqdim etish, eng yaxshi o'quvchilarni esa maxsus mukofotlar bilan taqdirlash. Bu ishtirokchilarni rag'batlantirish va ularning she'riyatga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.